

10 sinf geometriya 1-ChSB demo

1. (B-4 ball) Quyidagi jummalarni o'qing. Jumla to'g'ri bo'lsa "+" belgisini, noto'g'ri bo'lsa "-" belgisini qo'yib, to'g'ri javobni toping.


Jumlalar	"+" yoki "-"
1. Ikki tekislik faqat bitta umumiy nuqtaga ega bo'lishi mumkin.	
2. Ikkita farqli tekislik ikkita umumiy to'g'ri chiziqqa ega bo'lishi mumkin	
3. To'g'ri chiziq va unda yotmaydigan nuqta orqali bitta va faqat bitta tekislik o'tkazish mumkin.	
4. Agar to'g'ri chiziqlarning ikki nuqtasi bitta tekislikda yotsa, u holda uning barcha nuqtalari shu tekislikda yotadi.	

- A) -; -; +; +;
 B) -; +; -; +;
 C) +; -; -; +;
 D) +; -; +; -;

2. (Q-5,2 ball) Turli to'rtta nuqta uchligidan eng ko'pi nechta turli tekislik o'tkazish mumkin?

- A) 4 ta
 B) 3 ta
 C) 1 ta
 D) 2 ta

3. (B-4 ball) Rasmdagi ma'lumotlardan foydalanib, tekisliklar uchun noto'g'ri tasdiqni toping.



- A) α va γ tekisliklarning umumiy to'g'ri chizig'i - AB
 B) α va γ tekisliklarning umumiy nuqtalari - B, C
 C) α va β tekisliklarning umumiy to'g'ri chizig'i - AB
 D) α va δ tekisliklarning umumiy nuqtalari - C, D

4. (Q-5,2 ball) Prizmaning uchlari soni, qirralari soni va yoqlari soni haqida berilgan ma'lumotlarga qarab uning turini aniqlang va javoblarni mos keltiring.

Prizma haqida ma'lumotlar	Prizma turi
I. Prizmaning 10 ta uchi bor	A. Beshburchakli prizma
II. Prizmaning 18 ta qirasi bor	B. Oltiburchakli prizma
III. Prizmaning 9 ta yog'i bor	C. Yettiburchakli prizma
	D. To'qqizburchakli prizma

A) I-A; II-B; III-C

B) I-D; II-A; III-C

C) I-A; II-D; III-B

D) I-C; II-B; III-D

5. (Q-5,2 ball) Muntazam uchburchakli to'g'ri prizma asosining tomoni 4 cm ga, yon qirasi 10 cm ga teng. Bu prizmaning to'la sirtini toping.

A) $120 + 8\sqrt{3} \text{ cm}^2$

B) 120 cm^2

C) $120 + 4\sqrt{3} \text{ cm}^2$

D) $240 + 8\sqrt{3} \text{ cm}^2$

6. (Q-5,2 ball) Muntazam to'rtburchakli piramida asosining tomoni 6 cm ga, piramida uchini asos markazi bilan tutashtiruvchi kesma uzunligi 8 cm ga teng. Piramida apofemasi uzunligini toping.

A) $\sqrt{73} \text{ cm}$

B) $\sqrt{69} \text{ cm}$

C) $\sqrt{71} \text{ cm}$

D) $\sqrt{93} \text{ cm}$

7. (M-6 ball) Piramida asosi tomonlari 9 cm va 15 cm ga, kichik diagonal 12 cm ga teng bo'lgan parallelogrammdan iborat. Piramida uchini asos diagonallari kesishish nuqtasi bilan tutashtiruvchi kesma uzunligi 8 cm ga teng va u bu diagonallarga perpendikulyar. Piramidaning yon qirralari uzunliklarini toping.

A) 10 cm va $\sqrt{181} \text{ cm}$

B) 5 cm va $\sqrt{181} \text{ cm}$

C) 10 cm va $\sqrt{127} \text{ cm}$

D) 15 cm va 19 cm

8. (Q-5,2 ball) Kubning qirasi uzunligi 4 cm ga teng. Kubning bir uchidan chiquvchi qirralari o'rtalarini tutashtirishdan hosil bo'lgan kesim yuzini toping.

A) $2\sqrt{3} \text{ cm}^2$

B) $4\sqrt{3} \text{ cm}^2$

C) $8\sqrt{2} \text{ cm}^2$

D) $4\sqrt{2} \text{ cm}^2$